



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/5



MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- | | |
|----|---|
| 6 | ОДИЛҚОРИЕВ ХОЖИМУРОД ТҮХТАМОРДОВИЧ
Қонунчиллик ҳужжатлари тизимини такомиллаштиришнинг замонавий ҳуқуқий асослари |
| 14 | МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА АБДУРАШИДОВНА
Роль преемственности трудов Гафура Гуляма в развитии духовно-просветительских традиций будущих юристов |
| 21 | ISMOILOV BEKJON SALIOVICH
Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi sohasida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish muammolar |
| 31 | ШАЯКУБОВ БАБУР АХМАДЖАНОВИЧ
Стратегическое планирование: теоретические и методологические аспекты |

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.
MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- | | |
|----|--|
| 39 | БЕКОВ ИХТИЁР РУСТАМОВИЧ
Ўзбекистонда кўп partiyavий тизимнинг шакланиши ва ривожланиши |
| 50 | RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON OGLI
Some issues of the legal status of civil servants in Uzbekistan |

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- | | |
|----|---|
| 59 | БОЗАРОВ САРДОР СОХИБЖОНОВИЧ
Искусственный интеллект: возможна ли ответственность роботов? |
|----|---|

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI. XO’JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

- 70 **ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБОЕВИЧ**
Fuqarolik ishlari bўйича birinchi
instansiya суди xўжжатларини
takomillashaftirosh masalalari
- 81 **ҲАКБЕРДИЕВ АБДУМУРАД АБДУСАЙДОВИЧ**
Ҳакамлик sud ishlarini raqamlashtirishda sun’iy
intellektning o’rni
- 88 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror
intellektning o’rni
- 95 **XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O’G’LI**
Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror
ishtiropining ayrim masalalari
- 101 **DAVRONOV DONIYORBEK ABDULLO O’G’LI**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual
majburlov choralarini tadqiq etish muammolari
- 110 **ХАЙРУЛИНА АСАЛЬ БАХОДИРОВНА**
Возникновение и развитие альтернативных
способов разрешения споров: национальный
и зарубежный опыт
- 117 **BEBUTOVA ZARNIGOR FAXRIDDINOVNA**
Fuqarolik protsessida advokat faoliyatining
dolzarb muammolari: milliy va xorijiy tajriba
- 125 **СУБХОНОВ ШЕРАЛИ МУХАММАД УГЛИ**
Некоторые вопросы совершенствования
механизма исполнения судебных решений
о взыскании алиментов
- 133 **ГАЗИЕВ ШАХРУХ МУРОДАЛИЕВИЧ**
Харбий ijtimoiy-xукуқий ҳимоя:
tushunchasi va moxijati
- 140 **ТОШОВ МУХАММАД РАЖАБОВИЧ**
Ўриндошлик асосида ishlamайдиган boşqa
ходимнинг ishga қабул қилиниши, shuningdek,
ўриндошлик иши cheklanganligi sababli
meхнат шартномасини bekor қилиш masalalari

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.
IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

**12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI**

- 148 **SUNNATOV VOHID TOSHMURODOVICH**
Qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchasi,
metodologik asoslari va bosqichlari

- 156 **TOШПҮЛАТОВ АКРОМ ИКРОМОВИЧ**
Жиноят-хуқуқий принциплар: моҳият,
тушунча ва белгилар

- 166 **ALOYEV ULUG'BEK MAXMUDOVICH
ROZIMOVA QUNDUZ YULDASHEVNA**
Korrupsiyani keltirib chiqarishga ta'sir etuvchi
omillar

- 174 **АНОРБОЕВ МУРОДЖОН
РАХМАНКУЛ УГЛИ**
Общая характеристика преступлений
против правосудия

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 182 **USMANOVA SURAYYO BULTAKOVNA**
The legal and institutional regulation of tourism
in the Republic of Uzbekistan: emergence and
development

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 190 **АЗИМОВ ҲАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ**
Амир Темурнинг тарихий мероси – инсоният
тараққиётининг муҳим омили

UDC: 347.9(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-0774-661

FUQAROLIK SUD ISHLARINI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'iy INTELLEKTNING O'RNI

Pirmatov Otobek Shavkatovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasи dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), e-mail: pirmatov.otabek.89@inbox.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik sud ishlariга sun'iy intellektни tatbiq etish orqali odil sudlov faoliyati shaffofligini oshirish mumkinligi bayon etilgan. Sun'iy intellekt huquqiy maslahat, qaror qabul qilishda yordam yoki taraflarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga qaratilgan protsessual harakatlarni amalga oshirishi yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritishda sun'iy intellekt joriy etilishini ta'minlashda sud majlislarining audio va video bayonnomalarini tuzish maqsadida nutq va videoni tanib olish tizimlaridan foydalanish, sud hujjatlari loyihalarni avtomatlashtirilgan holda tayyorlash, sud jarayoni ishtirokchilarining sun'iy intellektdan foydalanishi, fuqarolarning biometrik identifikatsiya qilish texnologiyalaridan foydalanish orqali sud majlislarida masofaviy ishtirok etishini kengaytirish, nizolarni kamaytirish maqsadida fuqarolik sud ishi natijalarini bashorat qilish tizimlarini joriy etish orqali huquqiy ongni oshirish kabi masalalar bayon qilingan. Maqolada sun'iy intellekt sud markazida algoritmlar va katta ma'lumotlarni tahlil qilib, sud jarayoniga integratsiya qilish natijasida inson omilini kamaytirishga xizmat qilishi, sudyalarga ma'lumotnomalar sifatida o'xshash ishlarni avtomatik ravishda ko'rsata oladigan tizimlardan tortib suda ko'rib chiqishi uchun qarama-qarshiliklar yoki tegishli ma'lumotlarni avtomatik aniqlay oladigan tizimlarni ham qamrab olishi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, odil sudlov, avtomatlashtirish, audio bayonnomalar, biometrik identifikatsiya, raqamlashtirish.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЦИФРОВИЗАЦИИ ГРАЖДАНСКИХ ДЕЛ

Пирматов Отабек Шавкатович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
и.о. доцента кафедры

"Гражданское процессуальное
и экономическое процессуальное право"

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье указывается, что применение искусственного интеллекта в гражданском судопроизводстве может повысить прозрачность правосудия. Подчеркивается, что искусственный интеллект выполняет процессуальные действия, направленные на предоставление юридических консультаций, помощи в принятии решений или рекомендаций сторонам. В данной статье также обсуждается использование участниками судебного процесса систем распознавания речи и видео для создания аудио- и видеозаписей судебных заседаний, автоматизированной подготовки проектов судебных документов, технологий биометрической идентификации для обеспечения внедрения искусственного интеллекта в гражданское судопроизводство, в том числе увеличение удаленного участия в судебных слушаниях, повышение правовой осведомленности за счет внедрения систем прогнозирования результатов гражданского судопроизводства с целью уменьшения количества споров. В статье рассматривается снижение человеческого фактора путем интеграции искусственного интеллекта в судебный процесс путем анализа алгоритмов и больших данных в зале суда, начиная от систем, которые могут автоматически отображать похожие дела в виде ссылок на судей с искусственным интеллектом, чтобы автоматически выявлять несоответствия, а также соответствующую информацию для судебных органов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, правосудие, автоматизация, аудиопротоколы, биометрическая идентификация, цифровизация.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DIGITALIZATION OF CIVIL CASES

Pirmatov Otabek Shavkatovich,

Acting Assistant Professor of the Department of Civil Procedural and Economic Procedural Law,

Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. The article is determined to examine whether the use of artificial intelligence in civil proceedings can increase the transparency of justice. It is emphasized that artificial intelligence performs procedural actions aimed at providing legal advice or assistance in making decisions or recommendations to the parties. This article also discusses the use of speech and video recognition systems to create audio and video recordings of court hearings, the automated preparation of draft court documents, the use of artificial intelligence by litigants, the use of biometric identification technologies to ensure the implementation of artificial intelligence in civil proceedings, such as increasing remote participation in court hearings, increasing legal awareness by introducing systems for predicting the results of civil proceedings in order to reduce the number of disputes. The article shows reducing the human factor by integrating artificial intelligence into litigation by analyzing algorithms and big data in the courtroom, ranging from systems that can automatically display similar cases in the form of links to artificially intelligent judges to automatically identify inconsistencies, as well as relevant information for the judiciary.

Keywords: artificial intelligence, justice, automation, audio protocols, biometric identification, digitalization.

Sun'iy intellekt deganda, insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi sun'iy intellektual tizim tushuniladi. Ammo sun'iy intellektni to'liq anglash uchun "aqli bo'lgan mashinalarni yaratish" degan tushunchaning o'zi yetarli emas. Ushbu atama, shuningdek, o'rganish va muammolarini hal qilish kabi inson aqli bilan bog'liq xususiyatlarni namoyon etadigan har qanday mashinaga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Sun'iy intellektning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir [1].

Sun'iy intellekt atamasi fanga 1955-yilda Jon Makkarti (John McCarthy) tomonidan kiritilgan. 1956-yilda Makkarti va boshqalar sun'iy intellekt bo'yicha Ezgi Dartmut Tadqiqot Loyihasi konferensiyasini tashkil etishadi. Ushbu tashabbus mashina o'rganishi, chuqur o'rganish, bashoratlari tahlillar kabi ko'plab ixtiolar yaratilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bu tashabbus yangi soha – ma'lumotshunoslik (data science)ni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda odamlar va mashinalar faoliyati natijasida hosil bo'layotgan ma'lumotlar hajmi insonlarning ushbu ma'lumotlarni o'zlashtirishi, talqin qilishi va murakkab qarorlar qabul qilishi qobiliyatidan ancha ustundir. Sun'iy intellekt kom-

pyuterlarni o'rgatish uchun asos bo'lib, murakkab yechimlar topishning kelajagi hisoblanadi.

Sun'iy intellekt (SI) – bu tezkor hisoblash muhitida algoritmlar yaratish va qo'llash orqali insonning aql-idrok jarayonlariga taqlid qilish uchun zamindir [2].

Sun'iy intellektning qo'llash sud ishlarini raqamlashtirish yo'lidiagi asosiy bosqichlardan biridir.

Mamlakatimizning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy sohalariga sun'iy intellektni tatbiq etishga qaratilgan dasturlar qabul qilinmoqda. Bunga 2021-yil 17-fevraldaggi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarorini misol qilib keltirish mumkin.

O'zbekistonda sun'iy intellektni 3 bosqichda rivojlantirish rejallashtirilmoqda.

1-bosqich. 2021–2022-yillar – sun'iy intellektni rivojlantirishning fundamental asoslarini rivojlantirish va maqsadli tizimlashtirish; sun'iy intellektning asosiy ustuvor yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot va rivojlantirish faoliyatlarini tizimi tarzda tashkil etish; SI sohasida ta'lif tizimini samarali isloh etish hamda ilmiy tadqiqot va ta'lifda xalqaro hamkorliklarni jadallashtirish, shuningdek, ishlab chiqarishda raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlarning innovatsion faoliagini oshirish.

2-bosqich. 2023-2025-yillar – sun’iy intellekt sohasida kadrlar malakasi va intellektual salohiyatini xalqaro raqobat maydonida sifat jihatidan oshirish va nufuzini ko’tarish; ustuvor yo’nalishlarda yangi ilmiy-tadqiqot va rivojlanish markazlarini tashkil etish; biznes – ilm-fan – davlat integratsiya tizimini mustahkamlash orqali iqtisodiyot tarmoqlari muammolariga SI yordamida ratsional yechimlar to’plamini taklif etish; shuningdek, milliy iqtisodiyotda sun’iy intellekt asosidagi yuqori texnologiyalarga asoslangan milliy ishlanmalar eksport ulushini oshirish; milliy iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan raqamli ishlab chiqarish mahsulotlaridan keng foydalanish hamda jahon bozorida raqobatbardosh milliy brendlarga ega bo’lish.

3-bosqich. 2026-2030-yillar – O’zbekistonda yuqori rivojlangan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish; davlat boshqaruvining shaffof va samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar asosida to’liq kafolatlaydigan o’ziga xos axborotlashgan jamiyatni shakllantirish; shakllangan ma’lumotlar to’plamidan yuqori qiymatga ega bo’lgan mahsulotlar yaratish hamda mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishning ustuvor tarmoqlarini Markaziy Osiyo davlatlarida yetakchi va Osiyo davlatlari bilan raqobatlashadigan innovation davlatga aylantirish.

2021-2022-yillarda sun’iy intellekti rivojlanishning asosiy ustuvor yo’nalishlari etib quydigilar belgilanadi:

normativ-huquqiy va axloqiy munosabatlarda fundamental asoslarni tartibga solish;

axborotlashgan jamiyatni bosqichma-bosqich shakllantirish;

kadrlar tayyorlashda ta’lim islohotlari va ilmiy tadqiqot faoliyatlarini qo’llab-quvvatlash;

raqamli mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo’llab-quvvatlash va smart industriya [3].

Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirish sud faoliyati ustidan to’liq elektron boshqaruvga erishish hamda sud vazifalarini yengillashtirish va taraflarga qulay bo’lish maqsadida boshqa aqli raqamli tanlovlarni taklif etishni nazarda tutadi.

O’zbekistonda hozirda mayjud ma’lumotlar manbalaridan “Sun’iy intellekt ma’lumotlar bazasi”ni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish mumkin.

Jumladan:

Identifikatsiyalash yagona tizimi – (id.gov.uz);

O’zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali – (data.egov.uz);

Elektron hukumat tizimi ma’lumotlar bazasi – (my.gov.uz);

Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi – (davvizmat.uz);

O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi interaktiv xizmatlari – (my.sud.uz) va boshqalar.

Raqamli sudlar turli xil ko’rinishga ega bo’lishi va turli darajalarda tuzilishi mumkin. Mamlakatimizda fuqarolik ishlari bo’yicha sudlarda taraflarga o’z hujjatlarini elektron shaklda taqdim etish va sudlar bilan muloqot qilish imkonini beradigan elektron tartiblar joriy qilingan.

Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirishning ko’rinishlaridan biri elektron ariza berish tizimi bo’lib, u fuqarolik ishlari bo’yicha sudga istagan joyda onlayn tarzda istalgan fuqarolik ishlari bo’yicha sudning hal qiluv qarorini yuklab (скачать) olish imkonini beradi.

Raqamlashtirish nafaqat sudning kundalik faoliyatiga ta’sir qiladi, balki suddagi katta ma’lumotlarni tahlil qilish va jamoatchilikka ma’lumot berishga ko’maklashadi.

Sudlarda raqamli vositalardan foydalanish butun dunyoda keng tarqalmoqda. “Kiberadolat” deb ataluvchi vositalar allaqachon AQSH, Osiyo sud tizimlarida joriy qilingan, jumladan, odil sudlovga kirishni osonlashtiradigan, sudlar va advokatlar o’rtasidagi aloqani yaxshilaydigan, sudyalar hamda sud ma’muriyati faoliyatiga bevosita yordam beradigan sun’iy intellekt tatbiq qilinmoqda.

Dory Reylingning ta’kidlashicha, sudlarda sun’iy intellekti tatbiq etishning quydagi afzalliklari mavjud:

Axborotni qidirish. Matnli hujjatlar va fayllardagi ma’lumotlarni qidirish, masalan, katta hajmdagi ma’lumotlarni saralashda yoki katta hajmdagi ma’lumotlar ichidan zarur axborotlarni qidirishda foydalanish mumkin. Bunga misol qilib bugungi kunda Amerika Qo’shma Shtatlarida sud jarayoni boshlanishidan oldin elektron ma’lumotni aniqlash uchun qo’llaniladigan avtomatlashtirilgan “e-discovery”ni aytishimiz mumkin.

E-discovery sun’iy intellektidan foydalangan holda, katta hajmdagi ma’lumotlardan zarur axborotlarni ajratib olishga yordam beradigan

mukammal algoritm tizimidir. Taraflar qaysi qidiruv so'zlari va kodlashdan foydalanishlari haqida kelishib oladi. Sudya kelishuvni baholaydi va tasdiqlaydi. Bu Qo'shma Shtatlar va Buyuk Britaniya sndlari tomonidan e'tirof etilgan hujjatlarni tekshirish usuli sanaladi. Bu usul qo'lda fayllarni o'rganishga qaraganda tezroq va aniqroqdir.

Maslahat berish. Maslahat berishga qodir bo'lgan sun'iy intellekt o'z muammosiga yechim izlayotgan, lekin nima qilishini hali bilmagan fuqarolar va sud ishining potensial ishtirokchilari uchun foydali bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt maslahati, shuningdek, huquqshunoslar uchun ham amaliyotda juda qo'l keladi. Sun'iy intellekt nafaqat tegishli ma'lumotlarni qidiradi, balki savollarga javob beradi. Keyin foydalanuvchi bu maslahatga amal qiladimi, yo'qmi, o'zi qaror qabul qiladi. Ushbu maslahat funksiyasi odamlarga ko'p muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga yordam beradi va shu bilan nizolar yoki sud ishlarining oldini oladi. Agar maslahat yetarli bo'lmasa, yechim topishda yordam berish ham mumkin.

Bashorat qilish. Bugungi kunda sud qarorlari ni bashorat qiladigan sun'iy intellekt ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu maxsus algoritmlar bilan nizolar natijasini bashorat qilishdir. Nizolar natijasi aniqlangan faktdan ko'ra ko'proq ob-havo prognoziga o'xshaydi. Xuddi ob-havo kabi, sud jarayonlari ham oldindan aytib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Qo'shma Shtatlarda turli xil bashorat vositalari tijorat maqsadida taklif etiladi [4].

Asosan, G'arb davlatlarida sun'iy intellektdan fuqarolik nizolari hamda jinoi qilmishlar bo'yicha qanday sud hujjati chiqarish ehtimoli to'g'risida yechimlardan foydalanilmoqda.

2018-yilda Qo'shma Shtatlardagi robot-advokatlar allaqachon 1 milliard dollardan ortiq xizmatlarni taqdim etgan. Ular mijozlarga sud va boshqa davlat organlariga topshirish uchun birlamchi hujjatlar va har xil turdag'i huquqiy hujjatlarni tayyorlashda yordam beradi.

Yangi yuridik xizmatlarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan yuridik startaplar advokatlar, yuridik xizmat ko'rsatuvchilar va sug'urtachilarga 2,3 milliard dollarlik xizmatlar sotdi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga zamonaviy xizmat ko'rsatadigan, ya'ni turli ishlar bo'yicha sndlarning qarorlarini prognoz qilish bilan

shug'ullanadigan xususiy kompaniyalar ham paydo bo'ldi. Ushbu xizmat, barcha qarama-qarshiliklarga qaramay, davlat qonunchiligi doirasida amalga oshiriladi va shuning uchun tobora rivojanib bormoqda [5].

Yurtimizda faoliyat yuritadigan advokatlik firmalari, advokatlik byurolari tomonidan ham sun'iy intellekt asosida ishlaydigan fuqarolik nizolarini bashorat qilish startapi ishlab chiqilsa, advokatlar daromadini oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

David Lehrning ta'kidlashicha, sun'iy intellekt – hamma narsani biladigan, hech qanday tarafkashlikka yo'l qo'ymaydigan va hissiyotlarga berilmaydigan holda, sud ishini insonga xos xatolardan xoli ravishda hal qiladi [6, 1135-b.].

Sun'iy intellekt texnologiya bo'lgani uchun uning yaqin qarindoshlari hamda tanishlari bo'lmasligi tabiiy. Eng asosiysi, sun'iy intellektga yuqorida lavozimlardan bosim bo'lmaydi.

P.M. Morxat sun'iy intellektdan sud jarayonlarida foydalanishning o'ziga xos jihatlarini sanab o'tgan:

normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasini aniqlash maqsadida ularni o'zaro solishtirish;

chet el elementi ishtirokida sud jarayonlarida sinxron professional huquqiy tarjimalarni amalga oshirish;

avtomatik ravishda huquqiy hujjatlarni tasniflash, shakllantirish va hujjatlashtirish;

taraflarning buzilgan huquqlarini aniqlashda sudyaga yordam berish;

operativ ekspert bahosi zarur bo'lganda, sun'iy intellektdan foydalangan holda huquqiy qarorlar qabul qilish;

yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishlarni kompleks tekshirish;

sudyalarini maxsus ro'yxat bo'yicha tanlash; sud xatoliklarini tekshirish va boshqalar [7, 12-b.]

K.L. Branovitskiy va boshqalar sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish muammolariga to'xtalib o'tgan:

a) sud tizimidagi katta ma'lumotlar manbayini sun'iy intellektdan foydalangan holda tartibga solish;

b) sudda sun'iy intellekt orqali ekspert xizmatidan foydalanish muammosi. Sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlari "inson" darajasidagi tajribani talab qiluvchi qator funksiyalarini bajarishga imkon beradi. Bunday funksiyalar jarayon

ishtirokchilariga tegishli ekspert bilimlari va bolarini berishi mumkin (ekspert xulosasi yoki ekspert maslahati darajasida amalga oshirilishi mumkin);

d) sud amaliyotini tahlil qilish va prognozlash uchun sun'iy intellektidan foydalanish. Bu huquqni qo'llash sohasidagi muayyan tendensiyalarni aniqlash, sud amaliyotida xato va qarama-qarshiliklarni izlashni ham o'z ichiga oladi;

e) ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish. Masalan, sun'iy intellekt tizimlaridan isbotlash vositalarida (shu jumladan, dalillarni to'plash va tekshirish bosqichida) ham, protsessual hujjatlar ni ishlab chiqishda ham faol foydalanish mumkin. Hozirda ushbu jarayonning huquqiy tartibga solishga ta'sirini baholash juda qiyin;

f) sud yuritishning individual funksiyalarini sun'iy intellektga asoslangan tizimga topshirish. Bu funksiyalarga sud jarayonidagi bayonnomalar tuzish, tarjima qilish (yozma va bir vaqtda og'zaki), huquqiy hujjatlarni kataloglash, elektron ishlar va sud arxivlarini boshqarish, sud tarkibini shakllantirish va boshqalar kiradi. Aynan shu bosqichda sun'iy intellekt tizimlari ma'lum bir avtomatlashtirilgan vazifani bajaradigan "oddiy" kompyuter dasturlariga aylanshi kerak;

g) dalillarni baholash, ishning faktik holatlari va amaldagi qonunchilikni aniqlash uchun sun'iy intellektidan foydalanish muammosi. Bu huquq normalarini solishtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ularning iyerarxiyasini aniqlash uchun solishtirish, solishtirilganlar orasidan yuqoriqo yuridik kuchga ega bo'lgan normalar va hujjatlar belgilanishini nazarda tutadi [8].

Dunyodagi barcha sudlar veb-saytlarida interaktiv xizmat ko'rsatadigan interfeyslar mavjud. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy veb saytida interaktiv xizmatlar mavjudligi to'g'risida oldingi boblarimizda fikr yuritganmiz. Albatta, sun'iy intellekt sudlardagi katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishslashga ko'mak berishi mumkin.

T. Sourdin ta'kidlab o'tganidek, yangi texnologiyalar insonlarga nizolarni hal qilishda yordam berishi mumkin. Taraflarga muqobil variantlar, maslahat va nizolar yechimini aniqlashda sun'iy intellektidan foydalanish juda qo'l keladi [9, 1123-b.].

Sun'iy intellekt tomonidan beriladigan muqobil variantlar yoki maslahatlar tarafni sudga murojaat qilish to'g'risida fikr yuritishga majbur qiladi. Ya'ni taraf fuqarolik ishining yakuni bo'yicha hal qiluv qarori uning foydasiga chiqmasligini bilsa, sudga murojaat qilish, davlat boji to'lash haqida o'ylab ko'rishi mumkin.

Kanadalik huquqshunos Tara Vazdaning fikricha, "aqlli sud" (smart sud) deganda, sun'iy intellekt bilan ishlaydigan sudyalar va taraflarning o'z ishlarini onlayn ro'yxatdan o'tkazadigan, raqamli sud majlisи orqali nizolarni hal qilish imkonini beradigan sud tushuniladi [10].

Xitoy sudlarida dalil sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan shaxsiy xabarlar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar sun'iy intellektidan foydalanigan holda tekshiriladi.

Intelligent Trial 1.0 deb nomlangan ilova elektron sud materiallarini tekshirish va sud ishi hujjatlarini ishlab chiqish orqali sudyalar ish yuki ni kamaytirmoqda [11].

Estoniya sudlari 7 000 yevrogacha bo'lgan kichik da'volarni robot-sudyalar tomonidan ko'rib chiqmoqda. Taraflar robot-sudyalar tomonidan chiqarilgan hal qiluv qaroridan norozi bo'lsa, jonli sudyaga shikoyat qilishlari mumkin [12].

AQSH fuqarolik sud ishlarida Divorce Bot nikohdan ajratish bo'yicha huquqiy savollarga javob beradigan chat bot sanaladi [13].

Shuningdek, AQShda Wevorce startapi fuqarolarga nikohdan ajratish bo'yicha maslahatlar hamda nikohdan ajratish bo'yicha faoliyatni rejalashtirib beradi. Shuningdek, farzandni o'z tarbiyasida saqlab qolish (Parenting Plan) va mol-mulk, pul mablag'larini bo'lish to'g'risidagi masalalarni hal qiladi [14].

Split-Up Avstraliya fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda nikohdan ajratish bilan bog'liq ishlarni ko'rish jarayonida sudyaga mol-mulkni bo'lib berishga ko'maklashuvchi tizim sanaladi [15].

Legalese Language Processingi Legalese Language Understanding kabi dasturlar murakkab yuridik terminlarni tushuntirishga xizmat qiladi [16].

Kira Systems qonunchilikdagi o'zgarishlar va fors-major holatlarni hisobga oladi [17].

Xitoylik huquqshunos olim Mimi Zouning ta'kidlashicha, Xitoy sudlarida sun'iy intellektidan foydalanishning uchta muhim yo'nalishi mavjud:

birinchidan, sun'iy intellektdan sud qarorlarini qabul qilishda foydalaniladi. Xitoyning Internet sudlari uncha murakkab bo'lмаган ishlар, kam qiymatli shartnomaviy nizolarni hal qilishda "sun'iy intellekt sudyaları" yordamidan foydalanmoqda;

ikkinchidan, sudyalar sun'iy intellektga ega avtomatik tarzda yig'ilgan ishlarni ko'rib chiqmoqda va tahlil qilmoqda.

Sun'iy intellekt dalillarni solishtirish orqali sud qarorlari loyihalari bo'yicha og'ishlarni tahlil qilishi mumkin.

Pekin Internet sudi hatto insonga o'xshash gologramma ishlab chiqdi.

Ushbu gologramma nizolashayotgan taraflarga qonun-qoidalar, sud tizimi va sud tartibi to'g'risida ma'lumot bermoqda. Shuningdek, sudlovlikka oid ma'lumotlardan taraflar sudga murojaat qilishdan oldin foydalanishlari mumkin.

Pekin, Shanxay va Guangdong sud jarayonlarida sun'iy intellekt bilan ishlaydigan yangi robotlarni rasman ishga tushirdi [18].

Axborot kiritish asosida qaror qabul qila oladigan sun'iy intellekt dasturlari fuqarolik sud ishlarni yuritishga tatbiq etilishi mumkin.

Sun'iy intellekt berilgan algoritm bo'yicha harakat qiladi. Robot-sudya ma'lum miqdordagi qarorlarni insonga qaraganda tezroq chiqaradi.

Robot-sudya korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi yechimlardan biri bo'lishi mumkin. Shuningdek, fuqarolik sud ishlarni yuritish tezlasadi, chunki robot-sudya 24/7 ishlay oladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari sud tizimida sun'iy intellektning to'rtta misolini ko'rib chiqishimiz mumkin.

2017-yilda Argentinada Prometea sun'iy intellekt dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur loyiha eksperiment bosqichida bo'lib, sud ishlari bo'yicha qarorlar qabul qilib, sudyalar tomonidan chiqarilgan qarorlardan deyarli farq qilmaydi.

Xitoy sudlarida yuridik tushunarli tilda savol-larga javob beradigan robot yordamchisi mavjud.

Mamlakatda ham asta-sekin virtual yoki kiber sudlar joriy etilmoqda.

Shuningdek, Xitoy tajribasidan kelib chiqib, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda "elektron suda yordamchisi"ni ham joriy etishimiz mumkin.

Fuqarolik protsessual kodeksining 55-moddasida sud majlisi kotibi haqida fikr yuritilgan.

Sud majlisida sud majlisi kotibi vazifasini sudyaning yordamchisi (katta yordamchisi) bajaradi.

Onlayn sud majlislaridagi sud majlisi kotibi vazifasini sun'iy intellektga asoslangan robot bajaradi. Onlayn sud majlislaridagi robot-yordamchi o'zining elektron imzosi bilan sud hujjatlarini imzolaydi.

REFERENCES

1. <https://kun.uz/news/>.
2. <http://idtm.uz/suniy-intellekt/>.
3. <https://kun.uz/24828946/>.
4. www.iacajournal.org/articles/10.36745/ijca.343/.
5. <https://www.metronews.ru/novosti/world/reviews/iskusstvennyy-intellekt-mozhet-stat-chastyu-suda-1703741/>.
6. Cary Coglianese & David Lehr, Regulating by Robot: Administrative Decision Making in the Machine-Learning Era, 105 GEO. L.J. 1147, 1148 (2017) ("It is no longer fanciful to envision a future in which government agencies could effectively make law by robot, a prospect that understandably conjures up dystopian images of individuals surrendering their liberty to the control of computerized overlords."); Eugene Volokh, Chief Justice Robots, 68 DUKE L.J. 1135, 1135 (2019).
7. Morhat P. M. Vozmojnosti, osobennosti i usloviya primeneniya iskusstvennogo intellekta v yuridicheskoy praktike. Administrator suda. 2018. 2. pp. 8-12.
8. Branovitskiy K.L. i drugie. Sifrovye texnologii v sivilisticheskem protsesse: nekotorye problemы i perspektivы. <https://www.researchgate.net/publication/336408856/>. 9. Sourdin T. Judge v robot? Artificial intelligence and judicial decision-making// UNSW Law Journal/ 2018 at page 1123.

10. <https://www.lexisnexis.ca/en-ca/ihc/2020-02/robot-justice-chinas-use-of-internet-courts.page>
11. <https://www.worldgovernmentsummit.org/observer/articles/2017/detail/could-an-ai-ever-replace-a-judge-in-court>
12. <https://aastaraamat.riigikohus.ee/en/artificial-intelligence-a-substitute-or-supporter-of-judges/>
13. Drobyshev P. Innovatsii v yurisprudensii: obzor dostijeniy i tendensiy v oblasti IT-tehnologizatsii yuridicheskogo biznesa v angloyazuchnyx yurisdiksiyah. Zakon.ru, 2017. URL: <https://zakon.ru/blog/2017/12/16/>
14. <https://wefunder.com/wevorce>
15. <https://medium.com/legal-design-and-innovation/ai-goes-to-court-the-growing-landscape-of-ai-for-access-to-justice-3f58aca4306f>
16. <https://www.lawgeex.com/>; LawGeex raises \$12M for its AI-powered contract review technology.
17. <https://kirasystems.com/>; Kira Systems Overview.
18. Zou M. "Smart courts" in China and the future of personal injury litigation. // <https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?a>